

ZAMONAVIY RIVOJLANISH BOSQICHIDA TIJORAT BANKLARINI KAPITALLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402806>

Mamadjonov Shukurillo Ibrohimjon o'g'li
*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu tezisda zamonaviy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining kapitallashuvi mavzusiga qisqacha sharh va asosiy fikrlar berilgan. Tijorat banklarining o'sishi va barqarorligida kapitallashuv hal qiluvchi ro'l o'ynaydi, bu ularga tartibga soluvchi talablarni qondirish, o'z faoliyatini kengaytirish va iqtisodiy qiyinchiliklarga dosh berishga imkon beradi. Ilmiy ish banklar uchun kapitallashuvning ahamiyatini, xususan, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investorlarni jalb qilish, kreditlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash va texnologik taraqqiyotga ko'maklashish bilan bog'liqligini, shuningdek, u bank tizimini sog'lom saqlash uchun kapitalni boshqarishning samarali strategiyalari va me'yoriy-huquqiy bazaning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Kapitalizatsiya, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, normativ talablar, investorlar, bozor reputatsiyasi

Yirik tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yilgan talablarning yuqori darajada bajarilishiga ularning kapitali tarkibida maxsus zaxiralarning ulushi sezilarli darajada oshib borishi sababdir.

Ma'lumki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri, ular kapitalining yetarliligi va uni barqaror manbalar hisobidan shakllantirilganligiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari kapitalining yetarliligi bo'yicha talabni belgilaydi va uning ta'minlanishi ustidan nazorat olib boradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar banklari shuningdek mamlakatimiz banklari jami va asosiy kapitalining yetarliligi bo'yicha o'rnatilgan talablar yirik tijorat banklarida yuksak darajada bajarilmoqda.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, yirik tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yilgan talablarning yuqori darajada bajarilishiga ularning kapitali tarkibida mahsus zaxiralarning ulushi sezilarli darajada oshib borishi sababdir.

Ayrim tijorat banklarining jami kapitali tarkibida mahsus zaxira salmog'ining o'sishi devalyatsiya zaxirasi hisobiga yuz bermoqda.

Xo'sh, devalvasiya zaxirasi jami kapital tarkibidagi qanday manba? Uning tijorat banklari jami kapitali tarkibida o'sib borish tendensiyasiga ega ekanligining asosiy sababi nimada? Mazkur zaxiraning bank kapitalining mustahkamligiga ta'siri qanday? Ushbu holatni banklarga iqtisodiy zarar keltirmasdan bartaraf etish mumkinmi? Fikrimizcha, mazkur masalalarning bu tarzda qo'yilishi juda dolzarb hisoblanib, ularning oqilona yechimi topish banklar kapitalining mustahkamligiga bevosita ta'sir ko'satadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan bir qator yirik tijorat banklarining kapitali tarkibida xorijiy valyutalarda kiritilgan mablag'lar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida, tijorat banklari kapitalida xorij valyutasining ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolar mavjud edi. Ularning asosiylari sifatida, bank kapitalini shakllantirishga yo'naltirilgan xorijiy valyutalarni milliy valyuta kursining o'zgarishi natijasida vujudga keladigan qayta baholash muammosini ta'kidlash zarur. Chunki, milliy valyuta kursining o'zgarishi natijasida bank kapitali tarkibidagi xorijiy valyutalar qayta baholanib, kapitalning miqdori sezilarli ravishda oshib borish tendensiyasiga ega edi. Ushbu holat, bir jihatdan tijorat banklariga Markaziy bank tomonidan kapitali yetarliligiga qo'yilgan talablarni bajarishda qulaylik tug'dirsa, ikkinchi tomondan real tarzda mavjud bo'lmagan, nisbatan nobarqaror moliyaviy manbalar hisobidan ular kapitali miqdorining oshishiga olib kelardi.

Xalqaro Bazel andozalari joriy etilgandan so'ng, banklarning xorijiy valyutada shakllantiriladigan ustav kapitali bilan bog'liq munozarali bahsga chek qo'yildi. Unga muvofiq, tijorat banklarining xorijiy valyutada shakllantirilgan ustav kapitali bankning balansida tadrijiy qiymat bo'yicha hisobga olinadigan bo'ldi. Bundan buyon, xorijiy valyuta almashuv kursining o'zgarishidan qat'iy nazar, uning bank balansidagi milliy valyutada aks etgan qiymati o'zgarmasdan qoladi. Ammo, bank ushbu mablag'larini erkin ishlatish huquqidan foydalanib, aktiv operatsiyalariga resurs sifatida yo'naltirganda qayta baholanadi. Natijada, bankning

aktivlari o'rtasida qayta baholash miqdori tijorat banki balansi passividagi devalyvasiya zaxirasi hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitali miqdorini ko'paytirishning bir qator imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir.

1. Tijorat banklari oddiy aksiyalarini ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida keng ko'lamda oldi- sotdi qilinishiga erishish lozim.

Buning uchun aksiyadorlarga to'lanayotgan dividendlar miqdorining barqarorligiga erishish va ular haqidagi asosiy ko'rsatkichlarni ommaviy axborot vositalari orqali doimo yoritib borish zarur. Buning natijasida, tijorat banklari kapitali tarkibida, moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror hisoblangan emission daromadlar manbasi vujudga kelishiga erishiladi va bank aksiyalarining ichki moliya bozoridagi jozibadorligi yanada oshadi.

2. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining xozirgi bosqichida tijorat banklarining lizing va faktoring xizmatlariga xo'jalik sub'ektlari tomonidan extiyoj yuqoriligini inobatga olib, yirik tijorat banklari qoshida lizing va faktoring kompaniyalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

3. Tijorat banklari kapitali tarkibida devalyvasiya zahirasi yuqoriligini va qo'shimcha kapitalining nisbatan zaifligini inobatga olib, ushbu manbani ma'lum me'yorlar asosida bosqichma- bosqich qo'shimcha kapital tarkibiga o'tkazishga erishish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy bosqichda tijorat banklarini kapitallashtirish bilan bog'liq muammolarning yechimini topishda mavjud imkoniyatlardan kengroq foydalanish bank tizimining yanada barqarorligini ta'minlashga va aholining banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Bank Valuation and Value-Based Management: Deposit and Loan Pricing, Performance Evaluation, and Risk Management" - Jean Dermine
2. "Bank Capital and Risk-Taking: The Impact of Capital Regulation, Charter Value, and the Business Cycle" - Charles W. Calomiris and Doron Nissim

3. "The Bank Credit Analysis Handbook: A Guide for Analysts, Bankers, and Investors" - Jonathan Golin and Philippe Delhaise
4. "Banking and Financial Institutions: A Guide for Directors, Investors, and Counterparties" - Benton E. Gup

